

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА
ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ**

Республика илмий-амалий конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

(Наманган, 2016 йил 11-12 май)

Наманган - 2016

JAMIYATIMIZ ERTANGI TAYANCHI BO'LGAN YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKILLANTIRISH

Qodirov I.T.

Bugungi kunda ekologik inqirozning oldini olishda aholining ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik-xuquqiy ta'lim-tarbiyasi, mada-niyati va ma'naviyatini hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsi-yasining 64- moddasida "Ota-onalar o'z farzandari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlarlar " deb ko'rsatilishi har bir oilada ekolo-gik xuquqiy ta'lim-tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilishini ham toqozzo qiladi. Chunki dastlabki ta'lim-tarbiyani olib borish jarayoni oilada vujudga keladi. [1]

Yurtimizda jismonan yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Sog'lom turmush tarzini shakillantirishni toza atrof muhitsiz, boshqacha qilib aytganda ekologik xavfsiz tabiiy muhitsiz bir yoqlama tasavvur etib bo'lmaydi. Sog'lom tur-mush tarzi hamda atrof tabiiy muhit bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langandir. Sog'lom atrof tabiiy muhit, tabiiy muhitning toza va musoffoligi bolalarning sog'lom va yetuk voyaga yetishining asosiy omillaridan biridir. Ekologik muammo taraqqiyot, xavfsizlik, aholining turmushi va bevo-sita odamlar hayotining davomiyligiga ta'sir ko'rsatib, ayniqsa aholining eng yosh qismi bo'lgan bolalar hayotiga katta xavf soladi. Sir emaski ifloslangan, zaxarlangan atrof –muhit birinchi navbatda hali yosh, endi rivojlanib shakillanib borayotgan organizmga katta ta'sir ko'rsatadi, uning fiziologik va ruhiy rivojlanish holatiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Ayniqsa hozirgi payitda oilada ekologik omil va talablarga asoslanib sog'lom turmush tarzini shakillantirish masalalari muhim kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, oila –oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish, unga rioya qilish va targ'ib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musoffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila a'zolarining munosabati, xo'jalik yuritish uslubi, tartib qoidalari va odat ko'nik-malari – oilaning qadryatlarini belgilaydi. Ko'p mingyillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat berdiki oilada ma'naviy –ekologik qadryatlarga va uning qaror topishiga katta e'tibor berilgan. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz ekologik tizimiga katta sa'lbiy ta'sir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va an'anaviy odob-axloq qoidalari unitib yuborildi. Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida sha-killanib kelgan boy milliy ma'naviy qadryatlarimiz va merosimiz shundan dalolat berdiki, ota –bobo-larimiz, ajdodlarimiz. Ona zaminga o'zgacha munosabatda bo'lib suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko'cha-kuyni, shaxar, qishloq, ovullarini, bozorlarni, ariq-larni, hovuzlarni, toza, saronjon-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma'naviyatga, ekologik, qoida va mezonlarga to'la amal qilganlar. Oilada farzand tug'ilsa, unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorlarga ozor yetkazilmagan. Ma'lumki hozirgi zamon fan texnikasining jadal rivojlanishi tabiiy muhitga sal'biy ta'sir ko'rsatadi. Natijada murakkab ekologik

muammolar kelib chiqdi. Ularni hal qilish uchun yoshlarni, o'sib kelayotgan yosh avlodni yuqori saviyada ekologik ma'lumotli va tabiat qonunlarining bilimdoni ekologiyaga oid muammolarni hal qila oladigan mutaxassislar qilib tayorlashimiz zarur bo'lib qoldi. [2] Xulosa o'rnida yoshlarni o'simlik va hayvonlarni e'zozlashga o'rgatish ularni tabiatga mehr muhabbat ruhida tarbiyalash shunchaki emas, bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masalalardir. XXI asr ekolo-giya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatga ziyon yetkazmasdan o'zgar-tirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va yashash muhitni saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2012.

2.O.Hasanboyeva, D. Holiqov, Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo'latova, M.Sh.Nurmatova, X.J.Jabbarova, N.Jamilova, Sh.Egamnazarova, N. Qayumova, M.M.Pirmuhammedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasul, R.Avezova, "Oila pedagogikasi" Toshkent-2007.